



“BUXORO ADABIY MUHITI: KECHA VA BUGUN”

mavzusidagi
xalqaro ilmiy-nazariy
ANJUMAN
MATERIALLARI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI BUXORO
VILOYATI BO‘LIMI**

**TOJIKISTON RESPUBLIKASI BOBOJON G‘OFUROV
NOMIDAGI
XO‘JAND DAVLAT UNIVERSITETI**

TURKIYA JUMHURIYATI HACETEPE UNIVERSITETI

**“BUXORO ADABIY MUHITI:
KECHA VA BUGUN”**

**mavzusidagi
xalqaro ilmiy-nazariy anjuman**

MATERIALLARI

**Buxoro
“Ilm ziyosi”
2024**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳасанов Ш. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonлари поэтикаси. Филол.фан.д-ри дисс... –Т., 2004. –Б.188.
2. Жамол Камол. Олимнинг шеър дафтари. Китобда: Сафаров О. Болалигим қолган кўчалар. –Тошкент: “Муҳаррир”, 2010. –Б.5.
3. Сафаров О. Болалигим қолган кўчалар. –Тошкент: “Муҳаррир”, 2010. –278 б.
4. С.Воҳидов. Бухором бор, Бухором бор... (Болалар учун шеърлар, дostonлар, ривоятлар).–“Бухоро” нашриёти, 1997, 4,5 б.т)
5. С.Воҳидов. Сунбула (Достон, шеърлар, ғазаллар).–“Бухоро” нашриёти, 2002.
6. Н. Safarova, A crow, an owl, a sheep, a bird turned your flowers....:(On the example of the work of the poet Samandar Vahidov)Center for Scientific Publications (bukhdu. en).
7. Н. Safarova, Theformation of musammat (octaves) in the literary environment of Bukhara (based on the poems of Samandar Vahidov) Center for Scientific Publications (bukhdu. en).8 (2021)
8. Н. Safarova, Navoi does not need a soul, but. Center for Scientific Publications (bukhdu. en).3 (2021) 7. A. Hamroyev, H. Jumayeva, E3S Web of Conferences 420. 10007 (2023)
9. Н Safarova. The agony of missing the sun and heat. Center for Scientific Publications (bukhdu. en) 8(8) (2021)
10. Н. Safarova, et.al., Cyberpsychology, Behavior and social Networking 24, 12 (2021).
11. Н.О. Safarova. Parents double wings to the child. Indonesian Journal of Innovation Studies 18 (2021).

O‘ZBEK VA FORS-TOJIK ADABIY ALOQALARI S. AYNIIY TALQINIDA

*Rajabova Ma’rifat Baqoyevna,
BuxDU professori, f.f.d.*

Annotatsiya. Maqolada Sadriddin Ayniy tadqiqotlarida fors-tojik va turk (o‘zbek) adabiy aloqalarining shakllanishi xususida so‘z boradi. Olimning “Alisher Navoiy va tojik adabiyoti” nomli maqolasida A. Navoiyning forsiy hamda ilmiy asarlarining fors –tojik adabiyotiga ta’siri to‘g‘risidagi qarashlari tahlilga tortiladi. Shuningdek, ustoz Ayniyning Navoiy va Jomiy adabiy aloqalari tarixi va ushbu aloqaning madaniy ahamiyati masalasiga munosabati muammolari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. adabiy aloqa, fors-tojik adabiyoti, “Ustod Ro‘dakiy”, “Alisher Navoiy va tojik adabiyoti”, A.Jomiy va Navoiy.

Аннотация. Статья посвящена формированию персидско-турецких и узбекских литературных отношений в исследовании Садриддина Айни. В своей статье «Алишер Навои и таджикская литература» анализируются взгляды Навои на персидскую литературу. Кроме того, освещается отношение Айни на

истории литературных отношений между Навои и Джамии и их отношение к культурной значимости этого общения.

Ключевые слова. литературное общение, персидско-таджикская литература, Устод Рудакӣ, Алишер Навоӣ и таджикская литература, Джамии и Наваи.

Abstract. The article is about the formation of Persian and Turkish (Uzbek) literary relations in the researches of Sadriddin Ayniy. The views on the impact of A.Navai's Persian and scientific works on Persian literature in Ayniy's article "Alisher Navoi and Persian literature" are analysed. Furthermore, the issues about the history of literary relations between Navoi and Jami, in addition, Ayniy's perspectives on the cultural significance of this kinship are highlighted in the article.

Keywords. literary relations, Persian literature, "Ustod Rudaki", "Alisher Navoi and Persian literature", A.Jami and A.Navoi

Adabiy aloqa va ta'sir adabiy jarayonning rivojlanishini belgilovchi muhim omillaridan biridir. Jahon adabiyoti tarixi o'z qobig'ida rivojlanib, muayyan yutuqlarga erishgan adabiyotni bilmaydi. Unda janr, mavzular, badiiylik tamoyillarining tashakkuli va takmili xususida ham shu gapni aytish mumkin. Demak, madaniyatlar va adabiyotlararo aloqa o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Madaniyatlararo mushtaraklik, ilg'or g'oyalarni targ'ib etgan manbalarning yagonaligi madaniyat va adabiyotlarni, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Xuddi ana shunday ma'naviy ehtiyojni o'zbek va fors-tojik adabiyoti misolida ham kuzatishimiz mumkin.

Fors-tojik va turk (o'zbek) adabiy aloqalari uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tdi. Bu adabiy aloqalar tarixi o'zbek adabiyotshunosligida juda ko'p tadqiqotlarda o'rganildi, ilmiy xulosalar o'rtaqa tashlandi. Mana shunday tadqiqotlar qatorida shoir, nosir, tilshunos, tarixshunos va adabiyotshunos S. Ayniyning salmoqdor ilmiy ishlarini sanashimiz mumkin. U Rudakiy, Sa'diy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, Bedil kabi mutafakkirlarning muhibi bo'lgan. O'zbek va fors-tojik mumtoz adabiyotga muhabbat natijasida Ayniy ijodida alohida bir yo'nalish vujudga keldi. Bu uning adabiyotshunoslik faoliyatida ko'rinadi. "Darhaqiqat, S.Ayniy ijodi ko'p qirralidir. U shoir, nosir bo'lish bilan birga, adabiyot va tarixga oid ko'pgina ilmiy asarlar yaratgan zabardast olim hamdir" [1,98].

S.Ayniyning "Alisher Navoiy va tojik adabiyoti" [2,27] nomli kattagina maqolasida ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy faoliyati, ijodining fors-tojik adabiyotiga ta'siri masalasi tahlilga tortilgan.

S. Ayniy "Har bir xalqqa teng ko'z bilan qarovchi insonparvar buyuk Navoiyning fors-tojik adabiyoti ravnaqi yo'lida xizmatlari har taraflama"- , deb baho berar ekan, ana shu xizmatlar qanday ko'rinishlarda amalga oshirilganligiga e'tibor qaratadi. Ayniyning e'tiroficha, ulug' o'zbek shoirining "xizmatlari" sirasiga uning, bir tomondan, fors-tojikcha she'rlari – g'azallar, qasidalar, qit'alar, ruboiylar, fardlar va muammolari hissa bo'lib qo'shilgan bo'lsa, ikkinchidan, fors-tojik adabiyotiga oid ilmiy asarlari, uchinchidan, tojik adabiy tilida ilmiy va badiiy asarlarning vujudga kelishida ham moddiy va ma'naviy rahnamolik qilganida namoyon bo'lishini ta'kidlab o'tadi.

S. Ayniy “Alisher Navoiy va tojik adabiyoti” tadqiqotida e’tibor qaratgan muhim jihatlardan yana biri Navoiyning forsiy merosi masalasidir. U shoirning forsiy merosi hajmini Xondamirning “Makorim ul-axloq” asariga tayangan holda olti ming bayt (12 ming misra)ni tashkil qilishini qayd qiladi va bu lirik merosning asosiy xususiyatlarini quyidagi fikrlar bilan asoslaydi: *“Alisherning tojikcha g‘azallari o‘zbekcha g‘azallari kabi, asosan, lirik she‘rlar bo‘lishi bilan birga ularda falsafiy mazmunlar, insonparvarlik g‘oyalari ifoda qilinadi, tabiiy manzaralar va hayot lavhalar mohir bir rassom kabi bo‘rttirilib chiziladi”* [2,28].

Alisher Navoiy ilmiy asarlari bilan ham fors-tojik adabiyotshunosligi rivojiga muhim hissa qo‘shdi. Ayniy uning tojikcha muammo janriga bag‘ishlangan ilmiy-adabiy asari - “Mufratod”ga doir qarashlarini bayon qilar ekan, Sharq adabiyotida muammo yangi janr ekanligini, bu janrning nazariy qoidalari ilk bor Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan umumlashtirilganligi haqidagi qimmatli ma’lumotlarni berib o‘tadi. Ayniy muammo janrining taraqqiyotida Navoiyning xizmatlari sifatida “bu janrni umumlashtirish va yoshlarga o‘rgatish yo‘lini osonlashtirganligi”dadir,- deb qayd qiladi.

Tarixiy ma’lumotlar hamda Alisher Navoiyning o‘z asarlaridan ma’lumki, u arab va fors-tojik tillarida turli mavzulardagi asarlarning yaratilishiga sababchi bo‘lgan. Ayniy “Jomiy ijodiga oid yigirma yettita tojikcha kitob va risolalar” Navoiy tashabbusi bilan yozilganligini aytib o‘tadi.

Shu bilan birga, bunday asarlarning yaratilishida Navoiyning moddiy va ma’naviy rahnamolik qilganligini Ayniy tarixiy ma’lumotlar bilan dalillashga harakat qiladi. Jumlagan, “Ravzat us-safo” tarixining vujudga kelishiga birinchi omil Navoiydir”, - deb yozar ekan, o‘z fikrini muallif (Mirxond)ning asar muqaddimasida keltirgan tarixiy ma’lumotlar bilan asoslaydi.

Ayniy tadqiqot jarayonida e’tibor qaratgan muhim jihatlardan yana biri, Navoiyning “Majolis un-nafois” asari bo‘lib, uning XY asr tojik adabiyoti tarixining birinchi manbasi sifatidagi ahamiyatiga urg‘u beradi. O‘z fikrini asarda to‘rt yuzdan ortiq shoir, yozuvchi va adabiyot muhiblarining nomlari tilga olinganligi, ularning aksariyati tojik adabiyoti vakillari ekanligi bilan dalillaydi.

Tarixiy ma’lumotlardan ma’lumki, Alisher Navoiy faoliyatining bir ko‘rinishi ilm va san’at ahliga homiylik qilishda ko‘rinadi. S. Ayniy Alisher Navoiyning bu boradagi faoliyatini “U zamondagi ijodchi tojik yoshlarining o‘shiga Alisherning yordami ” tarzida qo‘yadi va shunday yozadi: *“Alisherning “Majolis un-nafois” kitobini ko‘zdan kechirar ekanmiz, bu xususni isbot qiladigan ko‘p hujjatlarni uchratamiz. Mazkur kitobning uchunchi majlisida yetmish bir shoir zikr etilgan. Ularning ko‘pchiligi tojik shoirlari bo‘lib, katta bir qismi Alisherning moddiy va ma’naviy tarbiyasi soyasida o‘sgan. Alisher kamtarlik qilib, bu to‘g‘rida og‘iz ochmaydi...”* [2,34] S. Ayniy tadqiqotda Navoiy homiyligida voyaga yetgan ijodkorlar haqidagi ma’lumotlarni uning zamondoshlari asarlari orqali asosli fikrlar bilan ilmiy dalillab o‘tadi. Bunga misol qilib Sayfiy, Osafi, Badriy Hiloliylar bilan bog‘liq ma’lumotlarni keltiradi.

Sadriddin Ayniyning yana bir diqqatga sazovor tadqiqoti “Navoiy va Jomiy” nomli maqolasi bo‘lib, unda tadqiqotchi Alisher Navoiyning maslakdoshi va ustoz,

adabiy hamkorlik doirasidagi faoliyati yuzasidan fikr yuritishni maqsad qiladi. “Navoiy va Jomiy” maqolasi olimning “Mirzo Abdulqodir Bedil”, “Zayniddin Mahmud Vosifiy”, “Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziy”, “Ustod Rudakiy” kabi ko‘plab tadqiqotlaridagi singari dastlab tarixiy vaziyat haqida so‘z ochish bilan fikrlarini boshlaydi. O‘quvchini Navoiy yashab o‘tgan davrning manzarasiga olib kirishga harakat qiladi. Dastlab ijodkorning davlat arbobi sifatidagi faoliyati, shoh Husayn Boyqaro bilan munosabatlari, vazirlik lavozimida xizmat ko‘rsatgani hamda uning islohotchilik ishlariga doimiy xalal berishga harakat qilib kelgan raqiblari Nizom ul-Mulk, Xo‘ja Majididdin kabilar to‘g‘risida so‘z yuritadi va shundan so‘ng Navoiyning Jomiy bilan munosabatlariga daxldor qarashlarini bayon etishga o‘tadi. Bunda Ayniyning ilmiy uslubiga xos shunday xususiyat namoyon bo‘ladiki, olim o‘zi so‘z yuritmoqchi bo‘lgan masalaning mohiyatini chuqur va har taraflama batafsil o‘rganishga harakat qiladi. Maqolada ham o‘quvchiga va ilm ixlosmandlariga yaxshi tushunarli bo‘lsin uchun tadqiqot ob’ekti bo‘lgan ijodkorlar yashagan davr manzarasiga oid chizgilarni berib o‘tadi. Shuning uchun “Navoiy va Jomiy” maqolasida Navoiyning islohotchilik ishlari, ilm-fan, xalq turmushini yaxshilash yo‘lidagi homiyligiga to‘xtalib o‘tadi. Masalan, *“U ilm, adabiyot, san’at, umuman, madaniyat taraqqiyotiga xizmat qilganlarning moddiy holati uchun qayg‘uradi” (ma’naviy qimmat yaratuvchilarga moddiy yordam berdi)* [2,173], deya uning ma’rifatparvarlik faoliyatini ta’kidlaydi. Shoirning xalq hayotini yaxshilash ishlari bilan mashg‘ul bo‘lganligi to‘g‘risida qayd etar ekan, jumladan, shunday yozadi: *“Bo‘lg‘usi vazir sifatida Alisher Navoiy obodonchilik ishlarini amalga oshirdi, yo‘llar va sug‘orish kanallari, ekin maydonlarini ko‘paytirish uchun esa yangi kanallar barpo etdi”* [2.175]. Navoiyning davlat ishlari bilan mashg‘ulligi to‘g‘risidagi ma’lumotlardan so‘ng uning Jomiy bilan munosabatlari, ustoz-shogirdlik va ijodiy aloqalari masalasining talqiniga o‘tadi va gapni ular o‘rtasidagi munosabatining ibtidosidan boshlaydi: *“Navoiy Abdurahmon Jomiy bilan yoshchik chog‘larida, o‘quvchilik paytlaridan yaqinlashgan edi. Navoiy yuqori davlat mansabini egallagach esa Jomiy nafaqat ilmiy va adabiy ishlarida unga yordamlashdi va yo‘lboshchilik qildi, balki siyosiy masalalarda ham samimiy maslahatchi bo‘ldi”*[2.175]. Olim “Xamsatul-mutahayirin” asarida bayon etilgan siyosiy masalalarda ham Jomiy bilan maslahatlashishiga oid bir voqeani keltirib fikrlarini dalillaydi.

Maqolaning keyingi qismlarida tadqiqotchining nega masala bayonini dastlab tarixiy voqelik bayonidan boshlaganligi ayonlashadi. Chunki olim yana Navoiy davri voqealariga to‘xtalishda davom etadi. Husayn Boyqaroning shoirlar va ma’rifat ahllariga ko‘rsatgan e’tibori va qiziqishlari, ayni paytda Majididdinning shohga yoqish maqsadida unga tuhfa qilib o‘z tarafiga og‘dirishga, uni Navoiyga qarshi qo‘yishga harakat qilishi va ushbu holat shoirning islohotchilik ishlariga, ruhiyatiga salbiy ta’sir etganligini ta’kidlaydi. Aynan shunday paytlarda ham Navoiyning ustози Jomiydan ruhiy madad olganligini ijokorning “Xamsatul-mutahayirin” asarida keltirilgan qaydlarga tayanib, isbotlab beradi. Demakki, shoirining Jomiy bilan aloqalari faqat adabiy-ijodiy aloqalar emas, ustoz-shoigirdlik, do‘st-birodarlik, hamfikir va hammaslaklik aloqalari bo‘lganki, Sadridin Ayniy bular to‘g‘risida aniq

dalillar – Navoiyning o‘z iqrorlari asosida yoritib beradi. Olim Navoiy va Jomiyning adabiy aloqalariga masalasiga ham batafsil to‘xtaladi. U “Xamsatul-mutahayyirin”da keltirilgan fikrlarga tayangan holda buyuk shoirning Jomiy bilan yozishmalari tarixi, durdona asarlarining yuzaga kelishida o‘zaro hamfikir bo‘lganligini ta’kidlaydi. Jomiy o‘zining “Lujjatul-asror” asarini Navoiyga taqdim etganligi va Navoiy undan ta’sirlanib, “Tuhfatul-afkor” qasidasini yozib, Jomiyga yuborganligi va uning asar to‘g‘risidagi fikrini bilishga qiziqqanligi bilan bog‘liq voqelarni keltiradi hamda bu orqali Navoiy va Jomiy munosabatlarining ijtimoiy, tarixiy, siyosiy, adabiy hayotda nechog‘li ahamiyatga ega bo‘lganligini ta’kidlab o‘tadi.

Xulosa qilib aytganda, Sadriddin Ayniy nafaqat shoiru nosir, balki yirik adabiyotshunos olim sifatida ham mumtoz adabiyotimiz tarixi bo‘yicha salmoqdor tadqiqotlarning muallifi hamdir. Uning tadqiqotlarida mumtoz adabiyotning turli mavzulardagi dolzarb muammolari tahlilga tortilganki, ularda bildirilgan ilmiy fikrlar hozirgi kunda ham boy merosimizni xolisona va har tomonlama chuqur o‘rganish va yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev S., Shermuhammedov S. Sadriddin Ayniy. Hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: O‘zbekiston, 1993.
2. Ayniy Sadriddin. Asarlar. VIII jild. G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent.1967.

ABDULQODIR KAROMATULLO IBN NE‘MATULLO SABBOQ BUXORIY HAYOTI VA ADABIY MEROSIGA OID

Nazzora Bekova, BuxDU professori, f.f.d.(DSc)

Dilnavoz Achilova, BuxDU magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqoladan hayoti va ijodi juda kam o‘rganilgan, XX asrda yashagan Abdulqodir Karomatulloh ibn Ne‘matulloh shayx Sabboq Buxoriy hayotiy faoliyati va ijodiy merosiga doir ma’lumotlar o‘rin olgan.*

Kalit so‘zlar: *Sabboq Buxoriy, Saudiya Arabistoni, tazkira, shayx, madrasa, nodir kitoblar, qo‘lyozma, hijrat, g‘azal*

Аннотация: *В данной статье собраны сведения о жизни и творческом наследии Абдул Кадира Кароматуллы ибн Нематуллы шейха Саббака Бухари, жизнь и творчество которого изучаются редко.*

Ключевые слова: *Саббаг Бухари, Саудовская Аравия, тазкира, шейх, медресе, редкие книги, рукопись, хиджрат, газель.*

Abstract: *This article contains information about the life and creative heritage of Abdul Qadir Karomatullah ibn Nematullah Sheikh Sabbaq Bukhari, whose life and work are rarely studied.*

Key words: *Sabbag Bukhari, Saudi Arabia, tazkira, sheikh, madrasa, rare books, manuscript, ghazal.*

Tarixdan barchaga ma’lumki, muhojirlik tarixiy taraqqiyotning obyektiv qonuniyati bo‘lib, o‘zbek millati ham ushbu jarayondan chetda qolgan emas. Muhojirlik jarayoni mustabid sovet tuzumi yillarida ommaviy tus olib, ayni ushbu